

GEOGRAFIYA

1. Farg'ona shahrida harorat 0°C, atmosferaning me'yoriy bosimi 702,2 mm.s.u.ni ko'rsatdi. Farg'ona shahrining dengiz sathidan balandligini aniqlang.
A) 488 metr B) 708 metr C) 578 metr D) 608 metr
2. Geografik qobiqning faqat o'ziga xos bo'lgan ikkinchi xususiyati qaysi javobda berilgan?
A) Litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalarning doimiy ravishda o'zaro aloqadorlikda bo'lishi
B) Organik hayotning mavjudligi
C) Modda va energiya almashinish jarayonining bo'lib turishi
D) Tabiat komponentlarining o'zaro bir-biriga ta'sir etib turishi
3. Bundan 4,6-4 mlrd yil avval geografik qobiqning qaysi qismlari shakllangan?
A) Atmosfera, gidrosfera, biosfera
B) O'ta oddiy organizmlar
C) Iqlim mintaqalari va tabiat zonalarini
D) Yadro, mantiya, Yer po'sti
4. Okeanlar yuza suvining harorati qayerda 27-28°C ni tashkil etadi?
A) Termik ekvator zonasida
B) Ochiq okeanlarda C) Tropiklarda
D) Qutbiy o'lkalarda
5. Biomassaga eng boy, eng issiq, kuchli shamol shu okeanda esadi. Bu xususiyat qaysi okeanga xos?
A) Hind B) Atlantika C) Tinch
D) Shimoliy muz
6. Quyidagi berilgan kashfiyotlar kimga tegishli ekanligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) 1498-yilda Hindistonga dengiz yo'lini ochgan;
2) 1642-1643-yillarda Hind okeanini birinchi bo'lib g'arbdan sharqqa suzib o'tgan;
3) 1771-1775-yillarda Hind okeani chuqurligini aniqlagan;
a) X.Kolumb, b) J.Kuk, c) F.Magellan, d) V.da Gama, e) A.Tasman.
A) 1-d, 2-e, 3-b B) 1-a, 2-c, 3-b
C) 1-d, 2-b, 3-e D) 1-a, 2-c, 3-d
7. Afrika materigining eng past nuqtasining geografik o'rnini aniqlang.
A) Kongo botig'i B) Afar botig'i
C) Kattara botig'i D) Turfon botig'i
8. Qaysi tabiiy geografik obyektning uzunligi 446 km?
A) Flint-Mamont g'orining
B) Fedchenko muzligining
C) Kolorado kanyonining
D) Hind-Gang pasttekisligining
9. Yellouston milliy bog'i qaysi davlat hududida tashkil etilgan?
A) Buyuk Britaniya B) Keniya C) AQSH
D) Zambiya
10. Qaysi geografik obyekt O'rta Osiyo o'lkasining eng g'arbiy nuqtasi hisoblanadi?
A) Tubqarag'ay burni B) Mingbuloq botig'i
C) Adenkur dovoni D) Xarirud vodiysi
11. Mezozoy erasining oxiriga kelib O'rta Osiyo hududida qanday iqlimiy o'zgarishlar sodir bo'lgan?
A) Iqlim nam va issiq bo'lgan, xilma-xil o'simliklar o'sgan.
B) Iqlim juda quruq bo'lgan, o'rmonlar yo'qolib ketgan.
C) Dengiz qayta bostirib kirgan, tog'lar yemirilib pasayib qolgan.
D) Dengiz asta-sekin chekina borgan, iqlim nam va issiq bo'lgan.
12. O'rta Osiyo hududining tekislik qismida yozda kontinental tropik havo massalari vujudga kelganda qanday iqlimiy (ob-havo) o'zgarishlar sodir bo'ladi?
1) harorat juda baland bo'ladi; 2) haroratning asta-sekin ilishiga sabab bo'ladi; 3) quruq va g'uborli bo'ladi; 4) ob-havo tez o'zgaradi; 5) quruq va tiniq bo'ladi.
A) 1, 3 B) 1, 5 C) 2, 3 D) 2, 4
13. O'zbekiston hududiga qaysi tomondan yil davomida shamollar esib turadi?
A) Janubi-g'arbiy, janubiy va shimoliy
B) Shimoliy-g'arbiy, shimoliy va g'arbiy
C) Janubi-sharqiy va g'arbiy
D) G'arbiy, shimoli-sharqiy

14. O'zbekistonning 3400 m baland tog'laridan boshlanib, qor va muz suvlaridan to'yinadigan daryolarni belgilang.
- A) Qoradaryo, Chirchiq
B) So'x, Isfara
C) Zarafshon, Isfayramsoy
D) Sheroboddaryo, Tursundaryo
15. Respublikamiz hududida joylashgan asosiy neft va gaz konlarini belgilang.
1) Laylimkon, 2) Oqjar, 3) Qizilqiya, 4) Sariqtosh, 5) Xovdog', 6) Ko'kyong'oq, 7) Uchquloch.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 3, 5, 6 D) 4, 6, 7
16. Respublikamizdagi mashhur Chimyon, Og'aliq, Miroqi tog' shifoxonalari qaysi viloyatlar hududida joylashgan?
- A) Farg'ona, Jizzax, Buxoro
B) Namangan, Samarqand, Navoiy
C) Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo
D) Toshkent, Xorazm, Surxondaryo
17. 2006-yilda Samarqand avtomobil zavodi qaysi davlat bilan hamkorlikda "Isuzu" rusumli avtobus va kichik yuk mashinalarini ishlab chiqara boshladi va "SamAvto" deb nomlandi?
- A) Turkiya B) Xitoy C) Janubiy Koreya
D) Yaponiya
18. Toshkent viloyatining janubida va g'arbida joylashgan tumanlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
- A) Angren, Olmaliq B) Chirchiq, G'azalkent
C) Bekobod, Chinoz D) Yangiyo'l, Parkent
19. Jizzax viloyatidagi qaysi konlardan marmar qazib olinadi?
- 1) Oqtosh; 2) Uchquloch; 3) Uzun; 4) Qo'ytosh; 5) Qoratosh; 6) Marjonbuloq
A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 4 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5
20. Boshqaruv shakliga ko'ra qaysi davlat parlamentlik respublikasi hisoblanadi?
- A) Isroil B) Rossiya C) Chexiya
D) Indoneziya
21. Urbanizatsiya darajasi 90-100% ga teng bo'lgan davlatlarni belgilang.
1) Argentina, 2) Daniya, 3) Qatar, 4) Italiya, 5) Urugvay, 6) Avstriya, 7) Koreya respublikasi
A) 2, 3, 6 B) 1, 4, 7 C) 4, 6, 7 D) 1, 3, 5
22. Aholisining milliy tarkibiga ko'ra bir millatli davlatlar guruhini belgilang.
A) Polsha, Somali B) Shvetsariya, Jazoir
C) Finlandiya, Rossiya D) Filippin, Ispaniya
23. Polsha janubdan qaysi davlat bilan chegaradosh?
- A) Serbiya B) Avstriya C) Makedoniya
D) Slovakiya
24. Yevropaning qaysi davlatlaridan simob rudalari qazib olinadi?
- A) Polsha, Bolgariya B) Ruminiya, Vengriya
C) Ukraina, Italiya D) Fransiya, Belgiya
25. Osiyodagi qaysi davlatlar o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda G'arb mamlakatlari tajribasini dastur qilib olgan?
- 1) Koreya respublikasi, 2) Isroil, 3) Singapur, 4) Kipr, 5) Tailand, 6) Turkiya, 7) Indoneziya, 8) Malayziya.
A) 1, 3, 7 B) 2, 4, 6 C) 3, 7, 8 D) 1, 3, 5
26. Kanberra shahrining geografik koordinatasi 35° j.k. va 149° shq.u. Bu shahar nechanchi soat mintaqasida joylashgan?
- A) O'n ikkinchi B) O'ninchi C) O'n birinchi
D) Sakkizinchi
27. Polineziya tarkibiga kiruvchi orollarni aniqlang.
- A) Samoa, Gavayi
B) Yangi Gebrid, Mariana
C) Marshal, Karolina
D) Gilbert, Yangi Kaledoniya
28. Quyidagi qaysi davlatlar ikki okean akvatoriyasiga chiqish yo'liga ega?
- A) Kanada, Lesoto B) Panama, Burundi
C) Gonduras, Kosta-Rika D) Isroil, Boliviya
29. Yer yuzasi qirg'oqlarining cho'kishi natijasida qaysi davlatda yirik to'g'onlar qurilib, to'g'onning balandligi har yili orttirilib turiladi?
- A) Islandiya B) Yangi Zelandiya
C) Niderlandiya D) Meksika
30. Kuchli siyosiy markaz bo'lib hisoblangan qaysi imperiya davlatlari Versal geosiyosiy bosqichida inqirozga yuz tutdi?
- 1) Avstriya-Vengriya, 2) Buyuk Britaniya, 3) Rossiya, 4) Turkiya, 5) Italiya, 6) Germaniya, 7) Fransiya
A) 2, 5, 6, 7 B) 1, 3, 4, 6 C) 1, 2, 5, 6
D) 2, 3, 6, 7

TO'G'RI JAVOBLAR

№	Javob		№	Javob		№	Javob	
1	C		11	B		21	D	
2	C		12	A		22	A	
3	D		13	B		23	D	
4	A		14	A		24	C	
5	C		15	B		25	B	
6	A		16	C		26	B	
7	B		17	D		27	A	
8	C		18	C		28	C	
9	C		19	D		29	C	
10	A		20	A		30	B	